

SAHNA MADANIYATI-AHLOQ KO`ZGUSI

D.Mo`minova.

Andijon davlat universiteti

Musiq ta’limi kafedrası katta o`qituvchisi

Musiq - inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg`usiga ta’sir etish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiq san’ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko`tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo`naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Yangi O`zbekiston ayniqsa, so`nggi yillarda jonajon Vatanimizda san’at va madaniyatga bo`lgan e’tibor benihoya ortganligi quvonarlidir. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevralda chiqargan: «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori buning yorqin misolidir. Ko`rilgan chora-tadbirlar natijasi o`laroq tarixan qisqa davr mobaynida ko`p asrlik xalqchil va mumtoz musiq an’analarini o`rganish, o`zlashtirish va targ`ib etishga qaratilgan qator e’tiborli ishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy san’atimizni rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlar, an’analar va ko`p asrlik musiqiy meros vositasida estetik tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning madaniyati ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bog`liqdir.

Sahnada ijro etilayotgan har bir asarning maqsad va g’oyasi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Chunki har bir ijro yuqori saviyaga, kuchli ta’sirchanlik xususiyatiga va albatta sahnaviy madaniyatga egadir. Mamlakatimizda san’atni o`ziga kasb qilgan ijrochilar birinchi navbatda sahnani botiniy va zoxiriy xususiyatlarini mukammal bilishlari zarur.

Ijrochilar elning ko`z o`ngida barchaga ibratli kishi sifatida faoliyat olib borganlar. Ijro jarayoning o`zi ham, ularni yurishda, turishda, o`tirishda, kiyinishda, ijroda va tinglovchiga bo`lgan munosabatlarda risoladagidek odobli, axloqli, nozik didli, nazokatli, chiroyli, fayzli va samimiy bo`lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ijrochining ijro madaniyatiga xos jihatlardir.

Yoshlarda go`zallikni his qilish va qadrlash kabi sifatlarni tarkib toptirishda sahna madaniyatining alohida o`rni borligini birinchi Prezidentimiz 2010 yil 29 avgust kuni V.A.Uspnskiy nomidagi ixtisoslashtirilgan akadmik musiq litseyi ochilishida - «Biz milliy musiqamizga ko`proq e’tibor qilishimiz lozim, chunki biz bu noyob durdonalarimizni dunyo miqyosiga olib chiqishimiz kerak. Yevropa madaniyatini rivojlantiruvchi davlatlar talaygina, lekin bizni san’atimizni faqatgina o`zimiz rivojlantira olamiz» deya alohida ta’kidlagandilar.

«Sahna madaniyati» tushunchasi ijrochining sahnada ijro etishning asosiy vazifasini - ommaviy tomoshabinni san’at bilan tanishtirish, sahnaga va tomoshabinga hurmatni tarbiyalash uchun yordam beradigan xatti-harakatlari va psixologik munosabatlari, ijrochida, shuningdek, taqdim etilgan badiiy materialga har ikki tomonning (ijrochi va tomoshabin) qiziqishi majmuini o`z ichiga oladi.

Sahna madaniyati tashqi ko`rinishdan boshlanadi.

– “Inson sahnada nafaqat ovozi bilan, balki, eng muhimi, boshi, yuragi, butun vujudi bilan ijro etishi kerak”. M.N. Bernes.

Ijrochilik janrining o`ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat ijroni, balki butun ifodali vositalarni ham o`z ichiga oladi.

Ular orasida ijrochining aktyorlik mahorati muhim o`rin tutadi. Yaratilgan badiiy obrazning yorqinligini oshirishga xizmat qiluvchi qo`shimcha ekspressiv vositalar ijrochining kuchli tomonlarini ta`kidlashi kerak, lekin hech qanday holatda ijrochi tomonidan yaratilgan badiiy obrazni buzmasligi kerak.

Ijrochining aktyorlik mahoratida fantaziya va tasavvur katta ahamiyatga ega. Ijrochining ichki dunyoqarashi qanchalik yorqin bo`lsa, ijro omma tomonidan shunchalik hissiy munosabat uyg`otadi. Musiqa va matn yordamida musiqachi-ijrochilar tomoshabinlar bilan juda ochiq muloqot qilishadi.

Sahna – bu sehrli joyki, unda ijodning sirlari va onlari namoyondir.

Ijrochida, shuningdek, taqdim etilgan badiiy materialga har ikki tomonning (ijrochi va tomoshabin) qiziqishi. Bunday muammoni hal qilishda yaxshi natijaga erishish uchun ijrochidan muayyan xulq-atvor xususiyatlariga ega bo`lish, materialni taqdim etish uslubi va ijrochining sahnaga munosabatini talab qiladi.

I. Sahna madaniyatiga quyidagilar kiradi:

- 1). Sahna nutqi (notiqlik san`ati)
- 2). Sahna harakati (plastika)
- 3). Aktyorlik mahorati

II. “Sahna madaniyati” o`zida quyidagilarni birlashtiradi:

• Harakat ko`nikmalarini o`rgatish (harakatlarning aniqligi, mushaklar kuchini to`g`ri taqsimlash, muvozanat hissi; muvofiqlashtirish);

- Sahnada qilgan har bir ish uchun mas`uliyat hissi
- harakat va hatto individual harakatlar;
- og`zaki va jismoniy harakatlar o`rtasidagi aloqa;
- Tana plastikligi;
- Sahna harakati ko`nikmalarini rivojlantirish va avtomatlashtirish;

Turli teatrlarda tasdiqlangan sahna harakati tafsilotlari bir-biridan farq qilishi mumkin, lekin asosan ular 3 asosiy turga bo`linadi:

- Xavfsizlik qoidalari
- Intizomiy qoidalar
- Artistning etikasi.

Ayni paytda kasbiy musiqa qatlami yangi bosqichga yuksaldi, musiqa ilmi alohida fan sifatida uzil-kesil shakllandi. Bu davrga kelib kasbiy musiqachilarning maqomi baland bo`lganligini, sahna madaniyati yanada yuksalib borayotganligining guvohi bo`lamiz.

Ma`lumki, o`zbek xalqi azal-azaldan o`zining boy madaniyati, takrorlanmas san`ati bilan dunyoni lol qoldirib kelgan. O`zbek san`atkorlarining chet el sahnalaridagi chiqishlari, bizning san`at asarlarimizni chet ellik muxlislar diqqat bilan tinglab, o`zlaricha xirgoyi qilishlari bejiz emas. O`lmas sarchashmalarimiz sanalmish urf- odatlarimiz, qadriyatlarimiz, marosim va udumlarimiz, o`lan va yor- yorlarimiz o`zbek xalqining nechog`liq madaniyat sohiblari bo`lganligidan dalolatdir.

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevralda chiqargan : « Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., “O`zbekiston”, 1995

3. M.Abdullaev. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg’ona, 1997.
 4. U.Qoraboyev, G`.Soatov. O`zbekiston madaniyati. “Tafakkur bo`stoni” Toshkent 2011
 5. Jahongir Mamatqosimov. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. T., “Fan va texnologiya”, 2009.
-